

KOGNITIV GRAMMATIKA KOGNITIV TILSHUNOSLIKNING BO‘LIMI SIFATIDA

Qurbonova Kamola Abdurahmonovna

Namangan davlat universiteti filologiya fakulteti 2-kurs talabasi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21886047>

Annotatsiya: Mazkur maqolada kognitiv grammatikaning shakllanishi, nazariy asoslari va zamonaviy kognitiv tilshunoslikdagi o‘rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda kognitiv grammatikaning asosiy tamoyillari, jumladan, ramziy birlik, qo‘llanishga asoslangan yondashuv, grammatik birliklarning ma‘noviy tabiati hamda leksika-grammatika uzluksizligi yoritilgan. Tadqiqot natijalari kognitiv grammatikaning grammatik hodisalarni inson tafakkuri, konseptual tizimi va nutqiy tajribasi bilan uzviy bog‘liq holda izohlashini hamda uning zamonaviy tilshunoslikdagi nazariy va amaliy ahamiyatini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: kognitiv tilshunoslik, kognitiv grammatika, ramziy birlik tamoyili, qo‘llanishga asoslangan yondashuv, grammatikalashuv nazariyasi, konseptual strukturalash konseptual metafora, kategoriyalashtirish, domenlar nazariyasi, obraz-sxema, konseptual tizim, ensiklopedik ma‘no, ideallashtirilgan kognitiv model.

Annotation: This article examines the formation, theoretical foundations, and role of Cognitive Grammar in contemporary cognitive linguistics. The study discusses the fundamental principles of Cognitive Grammar, including the symbolic thesis, the usage-based approach, the semantic nature of grammatical units, and the lexicon–grammar continuum. The findings demonstrate that Cognitive Grammar explains grammatical phenomena through their close relationship with human cognition, conceptual systems, and language use, highlighting its theoretical and practical significance in modern linguistic research.

Key words: cognitive linguistics, cognitive semantics, conceptual metaphor, categorization, domain theory, image schema, conceptual system, encyclopedic meaning, idealized cognitive model.

Аннотация: В данной статье анализируются становление, теоретические основы и место когнитивной грамматики в современной когнитивной лингвистике. В исследовании рассматриваются основные принципы когнитивной грамматики, включая принцип символической единицы, подход, основанный на употреблении языка (usage-based approach), семантическую природу грамматических единиц, а также континуум «лексика – грамматика». Результаты исследования показывают, что когнитивная грамматика объясняет грамматические явления в их тесной взаимосвязи с человеческим мышлением, концептуальной системой и речевой практикой, что определяет её теоретическую и практическую значимость в современной лингвистике.

Ключевые слова: когнитивная лингвистика, когнитивная семантика, концептуальная метафора, категоризация, теория доменов, образ-схема, концептуальная система, энциклопедическое значение, идеализированная когнитивная модель.

Kognitiv tilshunoslik fani insonning bilish jarayonida tilning ahamiyatini o‘rganadi. Kognitiv tilshunoslik markazida tushuncha turadi, ya‘ni fonetik, leksik, grammatik jihatdan shakllangan til va uning qoidalari orqali inson ongida tushuncha paydo bo‘ladi. Turli qoliplarga solingan belgilar tizimi ongda saralanib, ideallasadi. Tushunchalar birlashib, yangi ma‘lumot haqida tasavvur hosil bo‘ladi. Til psixologik, kommunikativ va madaniy omillarning o‘zaro ta‘sirini aks ettiradi, ya‘ni til va uning tuzilishi ong qanday ishlashini ko‘rsatadi. Tilning kognitiv vazifasi esa inson ongida ma‘nolarni tartibga solish va saqlash usullarini tushunishni o‘z ichiga oladi. Bu jihatlarni o‘rganishda kognitiv tilshunoslik juda muhim. Bu fanning vazifasi insonning qanday bilim turlariga ega ekanligini, ular qanday shakllarda saqlanishi va qanday qo‘llanishini o‘rganishdir. Ushbu fan til va ongning o‘zaro munosabatiga turlicha yondashuv asosida qaraydi. Shu nuqtayi nazardan kognitiv tilshunoslik uchta asosiy bo‘limga bo‘linadi:

- kognitiv fonologiya;
- kognitiv semantika;
- kognitiv grammatika.

Ushbu bo‘limlar tilni qoidalar tizimi sifatida emas, inson tafakkuri va kognitiv jarayonlar bilan bog‘liq holda o‘rganadi. Ularning har biri alohida xususiyatlarga ega. Bu bo‘limlar ichida kognitiv grammatika bo‘limi alohida ajralib turadi. Kognitiv grammatika kognitiv tilshunoslikning bir qismi bo‘lib, tilni grammatik qoidalar va tuzilishlar bilan birga insonning idroki, fikrlashi va his-tuyg‘ulari bilan bog‘liq

holda o‘rganadi. Kognitiv grammatikada tilni o‘rganish faqat sintaksis yoki morfologiyaga asoslanmaydi, balki ularning ma’noviy jihatlariga ham e’tibor qaratiladi, ya’ni grammatik tuzilmalar inson tajribasi, idroki va madaniyati bilan birgalikda tahlil qilinadi. Masalan, inson o‘z ongida grammatik qoidalarni shakllantirib, so‘z va so‘z birikmalarini tizimlashtiradi va ulardan ma’no hosil qiladi. Agar gap tarkibidagi tartib o‘zgarsa, anglashiladigan ma’no ham o‘zgaradi [Qurbonova, 2026 : B. 17]. Kognitiv grammatika grammatikani insonning umumiy bilish tizimi bilan uzviy bog‘liq hodisa sifatida talqin qiladi. Ushbu yondashuvda grammatika mustaqil, formal qoidalar majmuyi emas, balki insonning dunyoni idrok etishi, tajribasi va konseptual bilimlarini ifodalovchi tizim sifatida qaraladi. Shu sababli kognitiv grammatika til birliklarining shakliy tuzilishidan ko‘ra ularning mazmunni hosil qilishdagi kognitiv funksiyalariga alohida e’tibor qaratadi. Kognitiv grammatika yagona nazariy modeldan iborat emas, balki turli ilmiy yondashuvlarni o‘zida birlashtiruvchi konseptual yo‘nalish hisoblanadi. Mazkur yo‘nalish doirasida ayrim tadqiqotchilar grammatik kategoriyalarning kognitiv asoslarini va ularning inson tafakkuridagi mexanizmlarini o‘rganishga e’tibor bersa, boshqalari grammatik konstruksiyalarni tilning asosiy birliklari sifatida tavsiflaydi. Yana bir guruh olimlar esa grammatik shakllarning tarixiy taraqqiyoti va grammatikalashuv jarayonlarini tahlil qilib, leksik birliklarning asta-sekin grammatik vositalarga aylanish mexanizmlarini izohlaydi. Leksika kabi grammatika ham konseptual mazmunni tuzilmaga solish va uni ramziy shaklda ifodalash vazifasini bajaradi. Shu bois grammatika ham obrazli xususiyatga ega. Muayyan grammatik konstruksiya yoki grammatik morfemadan foydalanganimizda, kommunikativ maqsadga muvofiq ravishda tasvirlanayotgan vaziyatni ma’lum bir nuqtai nazardan konseptuallashtiruvchi obrazni tanlaymiz [Langacker, 1986 : B. 15].

Kognitiv grammatikaning asosiy nazariy tamoyillaridan biri ramziy birlik tamoyili hisoblanadi [Ungerer&Schmid, 1996 : B. 476]. Ushbu tamoyilga ko‘ra tilning har qanday grammatik birligi shakl va ma’noning ajralmas birligidan tashkil topadi. Demak, grammatik birliklar faqat formal tuzilma emas, balki muayyan konseptual mazmunni ham ifodalaydi. Shu sababli kognitiv tilshunoslikda grammatikani ma’nodan mustaqil holda o‘rganish mumkin emas. Ramziy birlik ikki asosiy tarkibiy qismdan iborat: semantik qutb va fonologik qutb. Semantik qutb til birligi orqali ifodalanadigan konseptual mazmunni anglatadi, fonologik qutb ushbu mazmunning tovush, yozuv yoki ishora vositasidagi ifodasini bildiradi. Mazkur ikki komponent inson ongidagi til bilimlari tizimida o‘zaro uzviy bog‘langan bo‘lib, ulardan biri ikkinchisiz mavjud bo‘la olmaydi. Shuning uchun til birliklari faqat tovushlar ketma-ketligi sifatida emas, balki ma’no tashuvchi konseptual strukturalar sifatida talqin qilinadi. Kognitiv grammatikaning bu yondashuvi klassik struktural tilshunoslikdagi ramz haqidagi qarashlar bilan ma’lum darajada uyg‘unlashadi. Biroq kognitiv model ramziy birliklarni insonning konseptual tizimi va bilish jarayonlari bilan yanada chuqurroq bog‘laydi. Til birliklariga inson ongida saqlanadigan va nutq jarayonida faollashadigan bilimlar tizimining tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Mazkur tamoyil grammatik konstruksiyalarni ham mustaqil ma’no egasi sifatida talqin qilish imkonini beradi. Masalan, bir xil voqelikni ifodalovchi aniq va majhul nisbatdagi gaplar mazmun jihatidan o‘xshash bo‘lsa-da, ularning konseptual yo‘nalishi farqlanadi. Aniq nisbat konstruksiyasi harakatni bajaruvchisiga e’tibor qaratadi, majhul nisbat konstruksiyasi harakat ta’siriga uchragan obyektini markazga olib chiqadi. Demak, grammatik shaklning tanlanishi axborotning qanday konseptuallashtirilishi va tinglovchiga qanday nuqtayi nazardan taqdim etilishi bilan bevosita bog‘liq. Shu tariqa kognitiv grammatika leksik birliklar va grammatik konstruksiyalar o‘rtasida qat’iy chegara mavjud emasligini ta’kidlaydi. Har ikkisi ham shakl va ma’noning uyg‘unlashgan ramziy birliklari bo‘lib, ular faqat ma’noning umumlashganlik darajasi bilan farqlanadi. Leksik birliklar nisbatan aniq konseptual mazmunni ifodalasa, grammatik konstruksiyalar umumlashgan va sxematik ma’nolarni aks ettiradi. Aynan shu yondashuv kognitiv grammatikaning leksika va grammatika uzluksizligi haqidagi muhim nazariy g‘oyasini tashkil etadi. Qolaversa, grammatika murakkab konseptualizatsiyalarni shakllantirish va ularni ramziy ifodalash vositasidir, biroq uni ushbu konseptualizatsiyalarning o‘zi bilan aynan tenglashtirib bo‘lmaydi. Tarkibiy tuzilma ham o‘ziga xos tayanch konstruksiya bo‘lib, u bizga murakkab semantik tuzilmaga erishish imkonini beradi [Langacker, 2001 : B. 184].

Kognitiv grammatikaning yana bir muhim nazariy tamoyili qo‘llanishga asoslangan yondashuv hisoblanadi [Ungerer&Schmid, 1996 : B. 478]. Ushbu yondashuvga ko‘ra insonning grammatik bilimlari tug‘ma va o‘zgarasiz tizim sifatida emas, balki tilning real kommunikativ vaziyatlarda muntazam qo‘llanilishi natijasida shakllanadi. Boshqacha aytganda, til haqidagi bilim nutq faoliyati davomida to‘plangan tajribalarni umumlashtirish va takroriy til birliklarini ongda mustahkamlash orqali hosil bo‘ladi. Mazkur tamoyilga ko‘ra tilni bilish va undan foydalanish jarayonlari bir-biridan ajratilmaydi. Til birliklari

qanchalik ko‘p va turli kommunikativ vaziyatlarda qo‘llansa, ular shunchalik barqaror kognitiv tuzilmalarga aylanadi. Shunga ko‘ra grammatik bilimlar amaliy nutq tajribasidan kelib chiqadi va keyingi nutq faoliyatini boshqaruvchi bilimlar bazasini shakllantiradi. Shu sababli kognitiv grammatika til kompetensiyasi va nutq faoliyatini qarama-qarshi hodisalar sifatida emas, balki o‘zaro ta‘sir qiluvchi yagona jarayon sifatida talqin qiladi. Kognitiv modelda har bir nutqiy voqea shakl va ma‘noning birgalikdagi namoyon bo‘lishi sifatida qaraladi. Nutq jarayonida so‘zlovchi bir tomondan konseptual mazmunni shakllantirsa, ikkinchi tomondan uni tovush, yozuv yoki boshqa kommunikativ vositalar orqali ifodalaydi. Natijada til birliklarining semantik va fonologik tomonlari bir vaqtning o‘zida faollashadi hamda ular o‘rtasidagi bog‘liqlik inson ongida mustahkamlanib boradi. Qo‘llanishga asoslangan yondashuv grammatik bilimlarning dinamik tabiatini ham e‘tirof etadi, ya‘ni til tizimi doimiy ravishda yangi nutqiy tajribalar ta‘sirida boyib, takomillashib boradi. Muntazam qo‘llaniladigan konstruksiyalar va til birliklari asta-sekin an‘anaviylashadi hamda tilning barqaror grammatik elementlariga aylanadi. Shu tariqa tilni qo‘llash grammatik bilimlarning shakllanishiga xizmat qilsa, mavjud grammatik bilimlar esa keyingi nutq jarayonining samarali amalga oshirishini ta‘minlaydi. Aynan ana shu ikki tomonlama munosabat kognitiv grammatikaning qo‘llanishga asoslangan modelining asosiy mohiyatini tashkil etadi.

Shuningdek, kognitiv tilshunoslik doirasida grammatika yagona nazariy model asosida emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi bir nechta yondashuvlar orqali tadqiq etiladi. Ushbu yondashuvlarning barchasi tilning ramziy tabiati, grammatik birliklarning ma‘noliligi hamda til va bilish jarayonlarining o‘zaro bog‘liqligini e‘tirof etadi. Shunga qaramay, ular grammatik hodisalarni izohlashda turli nazariy tamoyillar va tadqiqot obyektlariga tayanadi. Kognitiv grammatika rivojida muhim o‘rin tutuvchi yondashuvlardan biri Leonard Talmi tomonidan ishlab chiqilgan konseptual strukturalash tizimi modeli hisoblanadi. Ushbu modelga ko‘ra tilning leksik va grammatik birliklari til konseptual tizimining turli darajalarini aks ettiradi. Leksik birliklar voqelik haqidagi aniq va boy mazmunni ifodalasa, grammatik birliklar nisbatan umumlashgan, sxemaviy va strukturaviy ma‘nolarni kodlaydi. Kognitiv grammatikaning eng mukammal nazariy modeli esa Ronald Langaker tomonidan ishlab chiqilgan kognitiv grammatika hisoblanadi. Ushbu yondashuv grammatik birliklarning shakllanishi va qo‘llanilishini ta‘minlovchi kognitiv mexanizmlarni izohlashga qaratilgan. Langaker grammatik va leksik birliklarni bir-biridan keskin ajratmaydi, aksincha ularni inson ongida saqlanadigan yagona ramziy birliklar tizimining tarkibiy qismlari sifatida izohlaydi. Shu bois uning nazariyasida grammatika insonning konseptual bilimlari, tajribasi va nutq faoliyati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan dinamik tizim sifatida qaraladi. Kognitiv grammatikaning yana bir muhim tadqiqot yo‘nalishi grammatikalashuv nazariyasidir[Ungerer&Schmid, 1996 : B. 482]. Ushbu yondashuv til taraqqiyoti jarayonida mustaqil leksik birliklarning bosqichma-bosqich grammatik vositalarga aylanish mexanizmlarini o‘rganadi. Grammatikalashuv nazariyasi grammatik kategoriyalarning tayyor va o‘zgarmas tizim emasligini, balki tilning tarixiy rivojlanishi hamda nutqiy amaliyot ta‘sirida muntazam shakllanib borishini ko‘rsatadi. Umuman olganda, kognitiv grammatikaning barcha nazariy yo‘nalishlari grammatikani inson tafakkuri, konseptual tizimi va nutq tajribasi bilan uzviy bog‘liq hodisa sifatida talqin qiladi. Ular o‘rtasidagi asosiy farq grammatik birliklarning tuzilishi, ma‘no hosil bo‘lish mexanizmlari hamda til tizimini tashkil etuvchi birliklarni izohlash usullarida namoyon bo‘ladi. Biroq mazkur yondashuvlarning barchasi grammatikani formal qoidalar tizimi emas, balki ma‘no va bilish jarayonlariga asoslangan kognitiv tizim sifatida baholashi bilan o‘zaro mushtarakdir. Kognitiv yondashuv grammatikalashuvni faqat til shakllarining o‘zgarishi sifatida emas, balki inson tafakkuri, konseptualizatsiya va kommunikativ ehtiyojlarning o‘zaro ta‘siri natijasida yuzaga keladigan dinamik jarayon sifatida talqin qiladi. Mazkur nazariyaga ko‘ra til birliklari nutqda muntazam qo‘llanishi, ma‘noning umumlashuvi hamda konseptual qayta talqin qilinishi natijasida yangi grammatik vazifalarni bajarishga moslashadi. Natijada avval mustaqil leksik ma‘noga ega bo‘lgan birliklar vaqt o‘tishi bilan grammatik ko‘rsatkichlarga aylanishi mumkin. Kognitiv grammatikalashuvni izohlovchi bir necha nazariy modellar mavjud. Ulardan biri metaforik kengayish modeli bo‘lib, u grammatik ma‘nolarning konseptual metafora asosida shakllanishini tushuntiradi. Ronald Langaker tomonidan ilgari surilgan subyektivlashuv modeli esa grammatik ma‘nolarning shakllanishida so‘zlovchining nuqtayi nazari, baholashi va subyektiv munosabatining tobora kuchayib borishini asosiy omil sifatida ko‘rsatadi.

Qolaversa, kognitiv tilshunoslikda grammatika tushunchasi an‘anaviy yondashuvlarga nisbatan ancha keng talqin qilinadi. Unga faqat so‘z yasalishi, morfologiya yoki gap tuzilishini ifodalovchi qoidalar majmuyi sifatida emas, balki inson ongida shakllangan va til birliklarining qo‘llanishini ta‘minlaydigan konseptual bilimlar tizimi sifatida qaraladi. Shu nuqtayi nazardan grammatika tilning fonologik,

morfologik, sintaktik va semantik jihatlarini yagona kognitiv tizim doirasida birlashtiradi. Kognitiv grammatika nazariyasiga ko‘ra grammatik bilimlar insonning nutq tajribasi asosida shakllanadi va doimiy ravishda boyib boradi. Shuning uchun grammatika qat’iy formal qoidalar majmuyi emas, balki shakl va ma’noning o‘zaro bog‘liqligiga asoslangan ramziy birliklar tizimi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, kognitiv grammatika til hodisalarini inson tafakkuri va konseptual bilimlari bilan uyg‘un holda izohlovchi zamonaviy lingvistik yo‘nalishlardan biridir. Ushbu tadqiqot kognitiv grammatikaning nazariy asoslarini tizimli yoritish va uning boshqa grammatik yondashuvlardan farqli jihatlarini aniqlash imkonini berdi. Tadqiqot natijalari kognitiv grammatikaning til birliklarini ma’no va qo‘llanish nuqtai nazaridan tahlil qilishda muhim metodologik asos ekanligini ko‘rsatadi. Kelgusida mazkur yondashuvni o‘zbek tili materiallari asosida chuqurroq tadqiq etish hamda uni amaliy tilshunoslik yo‘nalishlarida qo‘llash dolzarb ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Evans V, Green M. Cognitive Linguistics (An Introduction) – Edinburgh: Edinburgh university press, 2006. – 830 p.
2. Langacker R. W. An introduction to cognitive grammar.//Cognitive science, 10(1), 1986. – P. 1-40.
3. Langacker R. W. Discourse in cognitive grammar.// Cognitive linguistics, 12(2), 2001. – P. 143-188.
4. Qurbonova K. Kognitiv tilshunoslikka oid atamalarning izohli lug‘ati. – Namangan: Mashrab, 2026. – 44 b.
5. Ungerer F. H, Schmid H. J. An Introduction to Cognitive Linguistics. – London, New York: Longman, 1996. – 383 p.